

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.FIL/PED.83.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

PETROSYAN NELYA VALEREVNA

**INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI TIL
YO‘NALISHIDAGI OLIY O‘QUV YURTLARI TALABALARINING
TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.02- Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand - 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Petrosyan Nelya Valerevna

Innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali til yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish..... 3

Петросян Неля Валерьевна

Развитие критического мышления учащихся языковых вузов посредством инновационных педагогических технологий 27

Petrosyan Nelya Valerevna

The development of language Institute students' critical thinking skills through innovative pedagogical technologies 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 57

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.FIL/PED.83.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

PETROSYAN NELYA VALEREVNA

**INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI TIL
YO‘NALISHIDAGI OLIY O‘QUV YURTLARI TALABALARINING
TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya kommissiyasida B2021.3.PhD/Ped 2741 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.samdchi.uz va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Ashurov Shahobiddin Saidovich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponenlar: Xashimova Dildora Urinbaevna
filologiya fanlari doktori, professor

Maxkamova Gulnara Turdaxunovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019. Fil/Ped. 83.01 raqamli Ilmiy kengashning «21» fevral 2023 yil soat 10 da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 2382937; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchi.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axbopot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 61343 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « 8 » fevral kuni tarqatildi.
(2023 yil « 7 » fevral da № 62 raqamli reestr bayonnomasi).



I.M.Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, pedagogika fanlari doktori,
professor

G'.Q.Mirsanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

Sh.S.Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon hamjamiyatining bugungi rivojlanishi jarayonida chet tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda. Zamonaviy pedagogikadagi so'nggi yillarda sodir bo'lgan va hozirgi kungacha davom etayotgan ta'lim maydonidagi o'zgarishlar ta'lim jarayonini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Jamiyat pedagogik faoliyatning sifat jihatdan yangi tavsiflariga ehtiyoj sezmoqda. Hozirgi vaqtda oliy ta'lim tizimida talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish an'anasining dolzarbligi natijasida mavjud muammolarni idrok eta oladigan va ularning yechimini topa biladigan analitik malaka va mahoratga ega mutaxassislar talab qilinmoqda. Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish filologik oliy o'quv yurtlari talabalarining analitik, assotsiativ, mantiqiy, tizimli tafakkurini va keyinchalik kasbiy faoliyat sohasida o'z qobiliyatlarini qo'llay olish va rivojlantirish mahoratini yuzaga chiqarib, muayyan muammoning taklif qilinayotgan yechimlarini mantiqiy asoslash, harakatlarning mantiqiy tartibiga rioya qilgan holda aniq faktlarni tahlil va sintez qilish qobiliyati bo'lajak til mutaxassislarini kasbiy tayyorlashda ustuvor ahamiyatga ega.

Dunyoda ingliz tilini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha olib borilayotgan izlanishlar bilan bir qatorda og'zaki va yozma nutqni o'rgatishning mavjud usul va uslublarini takomillashtirish, ushbu holatda, filologik oliy o'quv yurtlari talabalarida tanqidiy fikrlashni autentik materiallar asosida rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish asosiy masala hisoblanadi. Shu sababdan, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda talabalarning kommunikativ kompetensiyasi va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish o'rtasidagi bog'liqlik yaqqol ko'rinib turadiki, buning natijasida kasbiy ta'lim sifati yaxshilanadi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan jamiyatda amalga oshirilgan tub o'zgarishlar va mamlakatimiz hayotidagi barcha jabhalarning rivojlanishi hamda kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari Respublikamizda o'xshashi bo'lmagan noyob vaziyatni yaratdi. Davlatning ta'lim sohasidagi maqsadli pozitsiyasi, aslida, respublikada siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning asosiy bosqichiga aylandi. Strategiyaning qisqa muddatli istiqboldagi asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri – respublikamizning yosh avlodni tarbiyalash, «ma'naviy boy va axloqiy jihatdan yaxlit, mustaqil dunyoqarashga va mustaqil fikrlashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va umuminsoniy qadriyatlarga suyanadigan barkamol shaxsni shakllantirishdir»¹. Shu munosabat bilan, xorijiy til kompetensiyasini shakllantirish maqsadida chet tillarni o'qitishning asosiy maqsadini belgilash ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu holat tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2021yil 21 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini mustahkamlashga bag'ishlangan videokonferensiyadagi nutqi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PF-3775–son «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyai», 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yangi davrida ta’lim va tarbiya sohalarini, fanni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»dagi farmonlari, 2017-yil 14-fevraldagi PQ-4849-son «2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2017-yil 16-fevraldagi PQ-4958-son «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida», 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son «O‘zbekiston Respublikasi chet tillarni o‘rganishni rag‘batlantirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlash va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalalari Dj. K. Richards, T.K. Rodgers, M.S. Lloyd, T.G. Byuzan, D.F. Xalpern, S.D. Krashen, N.A. Janssen kabi xorijiy tadqiqotchilarning ham e’tiboridan chetda qolmagan.²

Pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlari, tafakkur va nutq, xorijiy olimlarning bu boradagi psixologik tadqiqotlari G.S. Altshuller, O.I. Gorbich, V.P. Bepalko, M.N. Guslova, N.D. Galskova, N.O. Yakovleva, E.I.Fedotovskaya, A.P.Panfilova, T.P.Salnikova, A.V. Konisheva kabi rus olimlari tomonidan o‘rganilgan.³

² Richards J.C., Rodgers T.S. Different methods in language teaching. –Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 335 p.; Lloyd M., Bahr, N. Thinking critically about critical thinking in higher education. International Journal for the Scholarship of Teaching and Learning, 4(2), vol. 4, 2010.-P. 5-16.; Buzan T. Brain Training for Kids. New York, 2012. -86c.; Halpern D.F. Assessing the effectiveness of critical thinking instruction. - The USA: Penn State University Press, 2001.-P.270-286.; Krashen S.D. Second language acquisition and second language learning. –Oxford: Pergamon, 2008.-P.27-35.; Жанссен Н.А. Технологическая и педагогическая поддержка планирования уроков учителями // Технология, педагогика и образование: том 27, 2019.- № 5.- С.15-17.

³ Альтшуллер Г. С. Найти идею. Введение в ТРИЗ – теорию решения изобретательских задач / Г. С. Альтшуллер – М : Альпина Бизнес Букс, 2007.-256 с.; Горбич О.И. Педагогические технологии в обучении русскому языку: учебно-методическое пособие / О.И. Горбич. - М.: ВК, 2012. - 144 с.; Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии / В.П. Беспалько. – Москва: Педагогика, 2000. – 192 с.: ил. – ISBN 5-7155-0099-0.; Guslova M.N. Инновационные педагогические технологии: Учебное пособие / М.Н. Guslova. - М.: Academia, 2018. - 672 с.; Гальскова Н.Д. Теория преподавания иностранных языков. Лингводидактика и методика [Текст]: учебное пособие / Н.Д. Гальскова, Н.И. Гез. – М.: Академия, 2004. – 336 с.; Яковлева Н.О. Концепция педагогического проектирования: методологические аспекты. - Москва, 2002. -15с.; Федотовская Е.И. Методика развития критического мышления как важного фактора формирования иноязычной коммуникативной компетенции в специализированных вузах: На примере общественно-политической тематики, английский язык. Дис. ... док.пед.наук. – Москва, 2005. – 171с.; Панфилова А.П. Инновационные

Chet tillarni o'qitish metodikasi J.J.Jalolov, G.T.Maxkamova, Sh.S.Ashurov, L.T.Axmedova, U.B.Azizov, N.X.Avliyakov, E.A.Seytxalilov, M.M.Tojiev kabi yurtimiz tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida yoritilgan.⁴

Autentik (asl) materiallar orqali tanqidiy fikrlashga o'rgatishning lingvodidaktik asoslari G.N. Irmuhamedovaning dissertatsiyasida ochib berilgan. K.U.Turdieva Toshkent agrar universiteti talabalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratgan. N.X.Alimova BMTM (badiiy matn tahlili mozaikasi) uslubini qo'llash orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish samaradorligini namoyish etgan bo'lsa, A.Sh.Bo'taev o'z ilmiy maqolalarida fazoviy tasvir va texnik chizma orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni tasvirlab bergan⁵. Ingliz tilini o'qitish metodikasi bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar mavjudligiga qaramay, ommaviy axborot vositalari materiallari asosida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasi esa hanuz ta'dqiq talabligicha qolmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Samarqand davlat chet tillar institutining ingliz tilini o'qitish metodikasi va pedagogika yo'nalishidagi «Zamonaviy ta'limning dolzarb masalalari: metodika va pedagogika sohasida zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish omillari» mavzusi bo'yicha istiqbolli ilmiy tadqiqot ishlari rejasining tarkibiy qismi sifatida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi filologik oliy o'quv yurtlari talabalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalarni autentik materiallar vositasida asoslash va ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

lingvistik oliy o'quv yurtlari o'quv jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga nisbatan texnologik yondashuvdan foydalanishning didaktik, uslubiy, pedagogik shart-sharoitlarini tadqiq qilish;

lingvistik oliy o'quv yurtlari talabalarining tanqidiy fikrlashni bilish darajasi va pedagogik texnologiyalashtirish masalalarining hozirgi holatini aniqlash;

педагогические технологии: Активное обучение: Учебное пособие / А.П. Панфилова. - М.: Академия, 2013. - 208 с.; Сальникова Т.П. Педагогические технологии: Учебное пособие / Т.П. Сальникова. - М.: ТЦ Сфера, 2010. -128с.; Коньшева А.В. Современные методы обучения. - Минск, 2007. -380с.

⁴ Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. English language teaching methodology.-Tashkent: Fan va filologiya, 2015.-336 p; Axmedova L.T.Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов филологов.- Ташкент: Fan va texnologiya, 2013.-200 с.; Azizov U.B. Chiesa D.L. Reconceptualizing Language teaching: An in-service teacher Educational course in Uzbekistan.-Т: 2018.-237р.; Авлиякулов Н.Х. Педагогическая технология.- Ташкент: Издательство Aloqachi, 2009. - 148с.; Сейтхалилов Э.А., Тожиев М.М. Педагогическая технология: опыт практического применения и системно-содержательного анализа. - Ташкент: Taffakur- bo'stoni, 2012.-255с.

⁵ Ирмухамедова Г.Н. Лингводидактические основы обучения критическому мышлению на основе аутентичного материала. Афтореф. Дис. ... док.пед.наук.–Ташкент, 2013.– 56 с.; Турдиева К.У. Развитие критического мышления у студентов//Наука и образование сегодня//Текст научной статьи по специальности наука и образование, 2019.- №3. – С. 177; Алимова Н.Х. Использование метода МХАТ в преподавании мировой литературы в вузе//Uzbekistonda xoriiy tillar ilmiy – metodik elektron jurnal. Ташкент, 2019.(www.journal.fledu.uz); Бутаев А.Ш., Абдурахманов Ш.С.Развитие критического мышления через пространственное представление и техническое рисование//Молодой ученый. Россия, 2011. -№11(34). - С.151-154.

lingvistik oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifatini oshirish yo'li sifatida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini muvaffaqiyatli joriy etishning didaktik shartlarini aniqlash va tajriba-sinovdan o'tkazish;

ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishni asoslash maqsadida ommaviy axborot vositalari materiallarining tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda eng samarali bo'lgan turlarini aniqlash va ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida filologik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarida ingliz tilini o'qitish jarayoni va o'quv jarayonini pedagogik texnologiyalashtirish tanlangan.

Tadqiqotning predmeti tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning shakl va vositalari hamda turli xil zamonaviy pedagogik texnologiyalari tashkil etadi.

Tadqiqotning metodlari. Dissertatsiyada empirik, pedagogik kuzatish, material to'plash, suhbat, so'rov, test, pedagogik eksperiment, sifat va miqdoriy natijani bayon qilish, statistik ishlov berish kabi metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalariga asoslangan ma'lumotlardan foydalangan holda ingliz tilini o'qitish mazmunini takomillashtirishda didaktik topshiriqlarga asoslangan autentik materiallardan foydalanish samaradorligi isbotlangan;

lingvistik oliy o'quv yurtlari o'quv jarayonida tanqidiy fikrlashning zamonaviy muammolarini hal qilishga qaratilgan imkoniyatini rivojlantirishga nisbatan texnologik yondashuvdan spektrli foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari orqali talabalarining mantiqiy va analitik tafakkurini shakllantirishga qaratilgan didaktik ta'minot takomillashtirilgan;

tuzilishi hamda strukturasi jihatidan jurnal maqolalari, video materiallar lug'atidan foydalanish samaradorligi va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning ratsionalligi jihatlari bilan farq qiluvchi "deduksiya" pedagogik texnologiyasining mazmuni o'quv faoliyatini mahsuldor tashkillashtirishning tabaqalashtirish aspekti nuqtai nazaridan asoslangan;

tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan samarali vazifalar tizimini autentik materiallar yordamida shakllantirish asosida innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida ta'limni individuallashtirish va differensiallashtirishning didaktik tamoyillarini takomillashtirishga qaratilgan "deduksiya" yangi pedagogik texnologiyasi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va innovatsion texnologiyalardan foydalanish kontekstida mutaxassislik sifatida ingliz tilini o'rgatish uchun o'quv vositalari takomillashtirilgan;

lingvistik oliy o'quv yurtlarida kasb-hunar ta'limi sifatini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'quv materiallari taklif qilinib, ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan;

mutaxassislik tilini o'qitish amaliyotiga innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llangan yondashuv va usullarning zamonaviy lingvistik nazariyaga mosligi, nazariy ma'lumotlarning ishonchli manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlil va fikrlarning asoslanganligi,

matematik statistika usullari bilan amalga oshirilgan eksperimental ishning samaradorligi, xulosa va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalar joriylanishining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati kommunikativ kompetensiya va innovatsion texnologiyalar asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish bilan izohlanadi. Bu holat tanqidiy fikrlashni shakllantirishda autentik materiallarning rolini va taklif etilgan innovatsion texnologiyalarning samaradorligini qayta ko'rib chiqish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati, tillarni o'qitishning innovatsion usullariga asoslanib kommunikativ maqsad uchun ishlab chiqilgan vazifalardan lingvistik oliy o'quv yurtlari o'quv rejasiga kiradigan kurslarning nazariy va amaliy mashg'ulotlarida hamda yangi avlod o'quv va o'quv uslubiy adabiyotlarini yaratishda foydalanish mumkin ekanligida ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Lingvistik oliy o'quv yurtlari talabalarining tanqidiy fikrlashini innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy takliflar asosida:

innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan samarali vazifalar tizimini shakllantirish hisobiga filologik oliy o'quv yurtlari talabalarini o'qitish metodikasiga asoslangan ilmiy xulosalardan № OT-Atex-2018-519 raqamli «Kompyuter imitatsion modellari asosidagi virtual resurslarni Web-ilovasini dasturiy ta'minotini yaratish» loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 2-fevraldagi №344 30.02.01 – sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ommaviy axborot vositalarining autentik matnlari asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'quv materiallari ishlab chiqilishiga erishilgan;

filologik oliy o'quv yurtlari talabalarining imkoniyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, dolzarb masalalarni ochib beruvchi, ommaviy axborot vositalariga asoslangan holda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun ingliz tilini o'qitish mazmunini autentik materiallar vositasida tanlash ilmiy bo'yicha tavsiyalar 561624-ERR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHE IMEP: O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va halqarolashtirish» loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 26-fevraldagi № 346 30.02.01– sonli ma'lumotnomasi). Natijada, lingvistik oliy o'quv yurtlari talabalarida tanqidiy fikrlashni o'qitish metodikasi takomillashtirilishga erishilgan;

ingliz tilini o'qitishda texnologik yondashuvdan foydalanishning didaktik, uslubiy, pedagogik shart-sharoitlari tizimi asoslab berilganligiga oid tavsiyalardan I-204-4-5 «Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish» loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 26-fevraldagi № 345 30.02.01 – sonli ma'lumotnomasi). Natijada chet tili ta'limi sifatini oshirish, chet tili o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini isloh qilish maqsadida tanqidiy fikrlashga o'rgatishning uslubiy yondashuvini takomillashtirishga erishilgan;

lingvistik oliy o'quv yurtlari talabalarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali rivojlantirishga qaratilgan «Reading, writing, integrated skills (teacher's manual on innovative pedagogical techniques for critical thinking development)» nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 25-dekabrda 5111400-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ixtisosligi uchun berilgan № 538-300 – sonli ma'lumotnomasi). Mazkur o'quv qo'llanmada muallif tomonidan yaratilgan «Deduksiya» texnologiyasi kiritilgan bo'lib, talabalarining tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, kasbiy mahoratini, og'zaki va yozma nutq malakalarini yanada oshirishga xizmat qilgan;

lingvistik oliy o'quv yurtlari talabalarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali rivojlantirishga, og'zaki va yozma nutq malakalarini oshirishga qaratilgan «Reading, writing, integrated skills (teacher's manual on innovative pedagogical techniques for critical thinking development)» nomli elektron darsligi ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligining 2022-yil 26-martdagi DGU 16164-raqamli guvohnomasi). Mazkur elektron darslikdan foydalanish lingvistik oliy o'quv yurtlari talabalarining «Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)» ta'lim yo'nalishi bo'yicha tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 1 ta elektron darslik, 1 ta o'quv-uslubiy qo'llanma va 17 ta ilmiy maqola nashr etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi xorijiy va 2 tasi respublika jurnallarida e'lon qilingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, boblar bo'yicha xulosalar, ishning xulosasi, foydalanilgan ilmiy va badiiy adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 126 bet bosma matnni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti aniqlangan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Texnologik yondashuv asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida tadqiqot muammosi, chunonchi mutaxassislik sifatida til o'qitishni mukammallashtirish nuqtai nazaridan texnologik yondashuv jarayoni, O'zbekistondagi til yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari talabalarida tanqidiy

fikrlashni rivojlantirishga texnologik yondashuvdan foydalanish tajribasini tahlil qilish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kontekstida ingliz tilini muloqotga yo'naltirilgan holda o'qitish bo'yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlil qilingan.

O'quv faoliyatiga texnologik yondashish tushunchasi zamonaviy ilmiy-pedagogik jarayon leksikasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarning aksariyati «pedagogik texnologiya» tushunchasini ochib berishga e'tibor qaratadi, yoki aniq texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishdan iborat. Shu bilan birga, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarning mohiyatini, ularning shaxs kamolotidagi roli va o'rnini ochib berish texnologiyalarning paydo bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlarni falsafiy kontekstda tahlil qilish muammosini ilgari suradi.

Ta'limdagi zamonaviy pedagogik texnologiyalar yangi ta'lim paradigmasini amalga oshirish hamda ta'lim sifatini oshirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan vosita sifatida qaraladi.

«Texnologiya» tushunchasining umumiy talqini shundan iboratki, u inson tomonidan atrof-muhitni o'zgartirish, moddiy yoki ma'naviy qadriyatlarni ishlab chiqarish maqsadida foydalaniladigan ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan faoliyat tizimidir.

Pedagogik texnologiyaning ko'plab ta'riflari mavjud bo'lib, ulardan biri YUNESKO tomonidan berilgan ta'rifidir: «Pedagogik texnologiya – bu texnik va inson resurslari va ularning o'zaro aloqadorligini hisobga olgan va ta'lim shakllarini optimallashtirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan holda, o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning butun jarayonini yaratish, qo'llash, belgilashning tizimli yondashuvidir»⁶.

Pedagogika fani va amaliyotida pedagogik texnologiyaning turli talqinlari mavjudligini aniqlash mumkin. Bu tasodifiy holat emas, chunki har bir muallif texnologiyaning mohiyatini tushunishga nisbatan ma'lum bir konseptual yondashuvga asoslangan holda yondashadi.

Pedagogik texnologiyalar bo'yicha barcha mavjud pozitsiyalar quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

- texnologiya aniq pedagogik maqsad uchun maqsadli ishlab chiqiladi, u muallifning uslubiy, falsafiy pozitsiyasiga asoslanadi;

- harakatlar va operatsiyalarning texnologik zanjiri aniq kutilgan natija ko'rinishidagi maqsadlarga muvofiq qat'iy ravishda tuziladi;

- texnologiyaning qo'llanishi o'qituvchining talabalar bilan shartnoma asosida individuallashtirish va differensiallashtirish, inson va texnik imkoniyatlarni maqbul tarzda amalga oshirish, dialog va muloqotdan foydalanish tamoyillarini hisobga olgan holda o'zaro bog'langan faoliyatni o'z ichiga oladi;

- pedagogik texnologiya elementlarini bosqichma-bosqich rejalashtirish va izchil amalga oshirish, bir tomondan, har qanday o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lishi, boshqa tomondan esa, barcha o'quvchilar tomonidan rejalashtirilgan natijalarga erishishni kafolatlashi kerak;

⁶ Авлиякулов Н.Х. Педагогическая технология. - Ташкент: Издательство Алоqachi, 2009.-С.148.

- har qanday pedagogik texnologiyaning organik qismi faoliyat natijalarini o'lchash mezonlari, ko'rsatkichlari va vositalarini o'z ichiga olgan diagnostika jarayonlaridan iborat bo'ladi.

Bizning tadqiqotimiz nuqtai nazaridan ushbu bayonot katta qiziqish uyg'otishga sabab bo'ladi, chunki unda inson faoliyatini tashkil etish shakllari, usublari, vositalari, usullari to'g'risida bilimlarni talab qiladigan turli xil ijtimoiy hodisalarning shakllanishi haqida muhim g'oya mavjud. 3-kurs talabalarining tanqidiy tafakkurini rivojlantirish nuqtai nazaridan, pedagogik texnologiyalarni talqin qilish til institutlarida o'quv jarayonini tashkil etish metodlari va usullari to'g'risida bilim va tushunchalar zarurligini aniq ko'rsatmoqda. O'qituvchining asosiy vazifasi talabalarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun pedagogik texnologiyani bosqichma-bosqich rejalashtirishdir. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari barcha ishtirokchilarning individual kommunikativ faoliyatiga asoslanadi.

O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish ta'lim maqsadi va mazmunini yangilash bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshirilmoqda. Bu jarayonning yakuniy natijasi ta'limga innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishidir.

Pedagogik texnologiyalarni rivojlantirishning ushbu yo'nalishidagi ko'plab tadqiqotlar o'quv jarayoni sifat tomonining mohiyatini, uni amalga oshirishning strategik usulini va uni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni to'g'ri tashkil etishni aniqlashning asosiy masalalarini tushunishga yordam beradi. Biroq, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish maqsadida pedagogik texnologiyalar vositasi bilan oliy o'quv yurtlari talabalarining ta'lim sifatini oshirish muammosi yetarlicha hal etilmagan.

Haqiqatdan ham, belgilangan maqsadlarga erishish ustidan nazoratni baholash mezonlari mavjud bo'lmagan, ish dasturlarining uslubiy asoslari esa ta'lim shakllari, usullari va mazmuni bo'yicha yetarlicha aniqlanmagan edi. O'quv dasturlari bilan jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar o'rtasida jiddiy farq bor edi. Ta'lim jarayoni bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirishga yo'naltirilmasdan, tayyor bilimlarni egallashga qaratilgan edi. Shuningdek, oliy o'quv yurtlari talabalarining shaxsiy xususiyatlari va kasbiy moyilliklari deyarli hisobga olinmagan. Aksariyat ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining moddiy-texnik jihatdan yomon ta'minlanganligi kuzatilgan. Oliy o'quv yurtlaridagi ta'limga nisbatan rasmiy yondashuv to'liq bartaraf etilmagan.

Lingvistik oliy o'quv yurtlari mutaxassislarini tayyorlash jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga texnologik yondashuvdan foydalanish tajribasi masalasini ko'rib chiqish uchun birinchi navbatda, biz tanqidiy fikrlash konseptiga murojaat qilamiz.

Tanqidiy fikrlash keng qo'llaniladigan atama bo'lib, u asosli qarorlar qabul qilish uchun ma'lumotni aniqlash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi⁷.

⁷ Halpern D.F. Assessing the effectiveness of critical thinking instruction. - The USA: Penn State University Press, 2001.-P.270-286;

Tanqidiy fikrlash atamasining ta'rifini talqin qilish bo'yicha katta bahs-munozaralar mavjud bo'lsa-da, oliy o'quv yurtlarida xorijiy tillarni o'qitish va o'rganishda tanqidiy fikrlash ustuvor yo'nalish sifatida qayd etilgan.

Oliy o'quv yurtlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga doimiy qiziqish bo'lishiga qaramay, talabalarda tanqidiy fikrlash va zamonaviy ish joylarida zarur bo'lgan muammolarni hal qilish ko'nikmalari yetarli emasligi haqida dalillar mavjud.

Bu kamchilik ingliz tili o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashni shakllantirish samaradorligini to'liq tushunasligida, uni rivojlantirish bo'yicha topshiriqlardan o'z darslarida kerakli darajada foydalana olmasligida namoyon bo'ladi.

Tanqidiy fikrlash terminining eng adekvat talqini E.I.Fedotovskaya tomonidan berilgan. Tadqiqotchining fikricha, tanqidiy fikrlash o'quvchilar faoliyatini aks ettirish bilan uzviy bog'liq bo'lib, tafakkurning quyidagi xususiyatlarini o'z ichiga oladi⁸:

-analitik fikrlash (axborotni tahlil qilish, kerakli faktlarni to'plash, faktlar yoki hodisalarni qiyoslash va taqqoslash);

-assotsiativ fikrlash (oldindan egallangan material, tanish faktlar voqealar bilan assotsiatsiyalar o'rnatish; predmetning yangi xususiyatlari bilan assotsiatsiyalar o'rnatish);

-mantiqiy fikrlash (muayyan muammoga taklif qilinadigan yechimlarni mantiqiy asoslash natijalarini taqdim etishda mantiqiy harakatlar tartibiga rioya qilish qobiliyati);

-tizimli fikrlash (o'qitish ob'ekti, muammo va uning xususiyatlarini tahlil qilish qobiliyati).

Xorijiy mamlakatlarda, shuningdek, O'zbekistonda ham tanqidiy fikrlashni o'rgatish «Baliq skeleti», «SWOT-tahlil», «IMEN», «PRES – formula», «Reyting», «INSERT», «Deduksiya» kabi turli innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishga asoslangan. Ushbu texnologiyalar mazkur ilmiy ishda asos qilib olingan.

Bizning fikrimizcha, tanqidiy fikrlashni o'rgatish o'rganilayotgan texnologiyalar kontekstida kommunikativ kompetensiyaning samarali rivojlanishini ta'minlaydi, bu nafaqat talabalarining og'zaki va yozma nutqi ko'nikmalarini shakllantiradi va rivojlantiradi, balki lingvistik oliy o'quv yurtlari bo'lajak mutaxassislarining kasbga yo'naltirilgan ta'lim sifatini ham zarur darajaga ko'taradi.

Dissertatsiyaning «**Innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali filologik oliy o'quv yurtlari talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish**» deb nomlangan ikkinchi bobida 3-kurs talabalarining tanqidiy fikrlash qobiliyatini «Baliq skeleti, PRES-formula, IMEN, Insert, SWOT-tahlil, Reyting, Deduksiya» kabi innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida rivojlantirish mutaxassislik tilini o'rgatishning maqsadi sifatida ko'rib chiqilgan. Ushbu texnologiyalar talabalarining mantiqiy va analitik tafakkurini shakllantirishga asoslangan bo'lib, bo'lajak mutaxassislarining til ko'nikmalarini mukammallashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

⁸ Федотовская Е.И. Методика развития критического мышления. - М: МГИМО, 2005.- 180 с.

Bu qobiliyatlar kasbiy faoliyatda muhim ahamiyatga ega, chunki bugungi ish muhiti ko‘proq fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini talab qiladi. Bu holatni ta’limga ham moslash mumkin. Shu maqsadda chet tili o‘qituvchilariga hayot realiyalariga tayyorlashning bir usuli sifatida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini o‘rgatish va rivojlantirishni o‘quv dasturiga kiritish tavsiya etiladi.

Zamonaviy jamiyatni modernizatsiya qilish lingvistik oliy o‘quv yurtlari talabalari tomonidan mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va ma’lumotlarning ishonchliligini baholash uchun o‘quv jarayoniga ommaviy axborot vositalarining autentik materialini kiritish masalasini ko‘taradi.

Bugungi kunning dolzarb muammolarini ochib beradigan ommaviy axborot vositalarining autentik materialidan, xususan, gazeta va jurnal maqolalari, videokliplardan foydalanish talabalarga tanqidiy fikrlashni o‘rgatishning mazmunli tarkibiy qismi bo‘lib, fikrimizcha ular ta’lim maqsadiga erishish uchun muhim komponent hisoblanadi.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda biz 3-kurs talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish maqsadida ommaviy axborot vositalarining autentik materiallari asosida bir qancha pedagogik texnologiyalarni tahlil qildik va ishlab chiqdik.

IMEN usuli. IMEN usuli (ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi) olim G.S.Altshullerning ishlanmasi bo‘lib, bu usulni u qurilish texnikasida qo‘llagan. Biz ushbu texnologiyadan birinchi marta lingvistik oliy o‘quv yurtlari 3-kurs talabalarining o‘quv jarayonida foydalanishga harakat qildik.

Ta’kidlash joizki, IMEN–pedagogik texnologiyasi intellektual qobiliyatli talabalar bilan ishlashda yengilliklar olib keladi. U nafaqat haqiqiy iqtidorlar bilan ishlashga imkon beradi, balki juda ko‘plab yoshlarning potensial qobiliyatlarini ham ochib beradi. Bilim va innovatsion loyihalarni ixtiro qilish usullarini o‘z ichiga olgan IMEN– pedagogik texnologiyasi prinsipial jihatdan tizimli faollik yondashuviga mos keladi.

Bilimlarni ixtiro qilish usuli bilan o‘qitish jarayonida har bir o‘rganilayotgan struktura tizimdagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish natijasi sifatida qaraladi. Darsga tayyorgarlik ko‘rishda, o‘qituvchi ushbu qarama-qarshiliklarni aniqlashi va IMENdagi qaysi usullar yordamida ular bartaraf etish mumkinligini topishi kerak. Dars davomida talaba o‘qituvchi yordamida ushbu qarama-qarshiliklarni topishi va IMEN usullarini qo‘llashi va keyinchalik o‘rganilayotgan tizimni yaratish g‘oyasiga kelishi lozim. Shunday qilib, bilimlarni ixtiro qilish usuli va innovatsion loyihalar usuli yaratilgan.

Innovatsion loyihalar usuli IMENni biladigan oz sonli o‘qituvchilar bilan 3-kurs talabalarining juda katta innovatsion ilmiy-texnik ijodkorligini tashkillashtirish imkonini beradi.

Ixtiro bosqichida masalaning o‘z yechimini topishni o‘rganish asosiy vazifaga aylanadi. Talabalarining ixtirochilik qobiliyati ularning ijodiy fantaziyasi, fahmidroki, yangi narsalarni o‘ylab topishiga xos xususiyatlarida namoyon bo‘ladi. Vaziyatlar inson faoliyatining turli sohalarida farq qilishi mumkin.

Ushbu texnologiyaning maqsadi talabalarining nafaqat o‘qishda, balki kundalik hayotda ham zarur bo‘lgan intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishdir

(o‘ylab qarorlar qabul qilish, axborot bilan ishlash, hodisalarning turli tomonlarini tahlil qilish qobiliyati)⁹.

«**SWOT-tahlil**» usuli. «SWOT-tahlil» strategik rejalashtirish usuli bo‘lib, u ob‘ektning ichki va tashqi muhiti omillarini (sub‘ekt, tashkilot va boshqalar) aniqlash va ularni to‘rt toifaga bo‘lishdan iborat: *Strengths* (kuchli tomonlar), *Weaknesses* (zaif tomonlar), *Opportunities* (imkoniyatlar) va *Threats* (tahdidlar)¹⁰.

Kuchli (*S*) va zaif (*W*) tomonlar tahlil ob‘ekti ichki muhitining omillaridir (ya‘ni ob‘ektning o‘zi ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan omillar); imkoniyatlar (*O*) va tahdidlar (*T*) tashqi muhit omillaridir (ya‘ni ob‘ektga tashqaridan ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan omillar).

1-jadval

«SWOT–tahlil» usuli *Guardians* gazetasining «*Role of media in the development of Education*» by *Radhika Kapur* maqolasi materialida

STRENGTHS	WEAKNESSES	OPPORTUNITIES	THREATS
The role of media in the development of education has been imperative. It has played an important part in influencing the under privileged and the socio-economic sections of the society in recognizing the significance of education.	The power of mass media is regarded widespread and massive, it can be utilized in efficient manner to educate people but it is important that the number of students within the classroom should be adequate otherwise it can have negative effect on educating learners.	The significance of mass media has been depicted in numerous areas and this would in turn contribute in enhancing educational opportunities amongst the individuals. The original awareness was to make provision of entertainment to the masses. Radio, TV, cinemas spend most of their resources directing on entertaining sources and programs.	Due to the increase of population and development of lifestyle the demand for more entertaining is increasing. It is dangerous in some cases because not all information is appropriate for younger generation especially terroristic messages or video.

«SWOT-tahlil»ning maqsadi biron-bir qaror qabul qilinishi kerak bo‘lgan vaziyatni tizimli tavsiflashga qaratilgan. SWOT-tahlil tashkiliy tuzilishingizning kuchli va zaif tomonlarini hamda kengroq imkoniyatlar va tahdidlarni aniqlashga imkon beradi. Vaziyatni yaxshiroq tushunishni rivojlantirish strategik rejalashtirishda ham, qaror qabul qilishda ham yordam beradi.

«SWOT» tahlili usuli dastlab biznes va sanoat uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, qarorlar qabul qilish va strategik rejalashtirish uchun mas‘ul bo‘lgan loyihalarning a‘zolari va rahbarlari «SWOT-tahlil»ning eng keng tarqalgan foydalanuvchilaridir. Ko‘p o‘tmay, olimlar ushbu texnologiyani ta‘lim sohasida ham qo‘llashni taklif qila boshladilar, chunki «SWOT-tahlil» ishning istalgan bosqichida, xususan, 3-kurs talabalari uchun foydali istiqbollarni taklif qilishi mumkin. Shu maqsadda 3-kurs talabalariga muhokama qilinayotgan dars mavzusining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash maqsadida haqiqiy onlayn jurnal maqolasi taqdim etildi.

Tahlil qilingan maqola misolida 3-kurs talabalari tomonidan ta‘limni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining zaif tomonlari va ushbu

⁹ Козлов О. В., Погребная Т. В., Сидоркина О. В. Методы изобретения знаний и инновационных проектов на основе ТРИЗ.- Красноярск, 2010.- С.56;

¹⁰ Ахмедова Л.Т. Технология развития критического мышления через чтение и письмо. - Ташкент: УзГУМЯ. Презентация, 2017.- С.18.

muammoni hal qilish uchun mavjud bo'lgan tahdidlarning real tarzda tan olinishi aniqlandi. Bu kuchli tomonlar va imkoniyatlarga asoslangan ishonchli strategiyalar to'plami yordamida ularga qarshi turish yo'lidagi birinchi qadamdir. «SWOT-tahlil» texnologiyasi mavjud muammoni tanqidiy tushunish imkonini beradi va talabalarni strategik rejalar va qarorlar qabul qilishga undaydi.

«**Reyting**» usuli. «Reyting» usulida talaba ro'yxatdagi barcha ob'ektlarni berilgan mezonning ortishi yoki kamayishi, ahamiyati yoki muhimligi tartibida bir qatorga tuzadi.

Usul talabalarga ob'ektning elementlarini tahlil qilish va baholash, tanlangan variantlarni dalillar bilan asoslash, «tarafdor» va «qarshi» dalillarni ko'rib chiqish va solishtirish, masalalarni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqishga yordam beradi.


S.L. Rubinshteynning ta'kidlashicha, «Fikrlash odatda muammo yoki savoldan, qarama-qarshilikdan boshlanadi. Muammoli vaziyat shaxsning fikrlash jarayonida ishtirok etishini anglatadi. Muammoda noma'lum, go'yoki to'ldirilmagan joylar bor. Ularni to'ldirish, noma'lumni ma'lumga aylantirish uchun dastlab insonda mavjud bo'lmagan tegishli bilimlar va faoliyat usullari zarur»¹¹.

Mikroguruh uchun muammoli vaziyatni shakllantirish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Talabalar oldida muhokamani paydo qilish va jamoaviy yechimga erishish yo'lini aniqlash uchun albatta, o'quv vazifasini shakllantirish lozim.

Guruhlarda, xususan 3-kurs talabalari bilan ishlashning muvaffaqiyatli tomoni ko'p jihatdan mohirlik bilan qo'yilgan o'quv vazifasiga bog'liq. Hatto, oddiy savollar ham guruhda munozaraga sabab bo'lishi mumkin.

Shu maqsadda mantiqiy hukmlarni amalga oshirish, vaziyatni tanqidiy tushunish uchun ayniqsa savollarning reyting usulidan foydalanish samaralidir.

- 1) How did **pandemic** influence on social life of England?
- 2) What caused **children's mental disorder**?



1-rasm. «Reyting» usuli Guardians gazetasining «One in six children aged 5-16 in England likely to have mental disorder» maqolasi materialida

¹¹ Абдулханова К.А. Философско-психологическое наследие С.Л.Рубинштейна.[сб.статей]/отв.ред. Абдулханова К.А.-Москва: МГУ, 2011.-С.38-40.

3) What are the disadvantages of **online education**?

4) How did Coronavirus change the **school system** of England?

3-kurs talabalari maqolani o'qib, tahlil qilib bo'lgach, o'zlari shakllantirgan savollar yordamida muammoning ahamiyatli jihatdan rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni ilgari surdilar.

Ushbu uslub asosiy atamalarni muhimlik darajasi bo'yicha tuzish imkonini beradi va guruh berilgan mavzuni har tomonlama muhokama qilishni boshlaydi. Talabalar gazeta va jurnallardagi matnlar bilan ishlaydilar va qo'shimcha ma'lumotlar va ilmiy adabiyotlardan foydalanadilar.

2-jadval

«INSERT» usuli «*Coronavirus: How the Royal Family is changing in lockdown*» by Sarah Campbel maqolasi materialida

(√) o'quvchiga tanish ma'lumotlar	Three months ago, when lockdown began, it was hard to see how, in isolation, the Royal Family could unite the nation as it had previously done in times of crisis. The Prince of Wales, the heir to the throne, had tested positive for Covid-19. He and the Duchess of Cornwall self-isolated in Scotland. The Queen and the Duke of Edinburgh, both in their 90s, retreated behind Windsor Castle's walls.
(-) yangi ma'lumot	The Queen's message seen by 24 million. Perhaps it was the setting - the crammed bookshelves, the family photo, the teddy bear on the mantelpiece - or the heartfelt, personal delivery - but it felt intimate and set the tone for how the Royal Family went on to communicate with the nation during lockdown. With no reporters, no camera crews and no questioners, the royal video calls and films have felt different. Lockdown should have been a challenge to the family mantra "we have to be seen to be believed". But it may have had the opposite effect.
(+) yangi qiziqarli ma'lumotlar	Queen tells UK 'we will succeed' in fight. Within a week Prince Charles, who suffered only mild symptoms of the virus, was able to release a video describing his "strange, frustrating and often distressing experience". The video was recorded at his home on the Balmoral estate. It is perhaps not surprising that the younger royals - particularly William and Catherine - have been very active on social media throughout lockdown. What they have also done, perhaps more than might have been expected bearing in mind their determination to protect their children's privacy, is include them in their efforts to rally the nation.
(!) ko'proq ma'lumot olish, bilish istagi	The Duchess of Cambridge in particular has appeared to relish the informality of the video call - and has been more engaging and confident than I have generally seen her in front of the cameras at "real-life" engagements. The institution had already been rocked by the departure of the Duke and Duchess of Sussex and the Duke of York "stepping back". Yet with each day, the death toll rose and a nation needed reassurance. Would Prince Charles have talked so candidly about lockdown separation and really wanting "to give people a hug" if he was face-to-face with an interviewer rather than doing it remotely via a laptop? May be. May be not.
(?) tushunarsiz, qo'shimcha izoh talab qiladigan ma'lumotlar	Prince William thanks carers for hard work. All but the hardest of hearts will have melted a little at the sight of Prince George, Princess Charlotte and Prince Louis clapping for carers outside their front door. As with many families, the royals have been spread far and wide across the UK. However, lockdown has offered the opportunity for some unprecedented get-togethers.

Muhokama ishtirokchilari dalillar va qarshi dalillar keltiradilar, o'z nuqtai nazarlarini isbotlaydilar. Boshqacha qilib aytganda, yangi materialni o'rganish sifat jihatdan yuqori darajada amalga oshiriladi, bunda talabalardan bilimlarni takrorlash

emas, balki muayyan ob'ekt yoki hodisaning eng xarakterli xususiyatlarini tushunish, tahlil qilish va baholash talab etiladi.

Shunday qilib, savollarning reyting usuli pedagogik texnologiyasining samarali usuli sifatida ko'rsatib o'tish mumkin.

«INSERT» usuli. «Insert» usuli amerikalik olim Vogani Estes tomonidan ishlab chiqilgan tanqidiy fikrlash usulidir. «Insert» matn bilan ishlash orqali yangi ma'lumotlarni tanqidiy tushunish va allaqachon o'rganilgan material bilan bog'lanishlarni topish qobiliyatidir.

«Insert» yangi o'quv ma'lumotlarni o'rganishning boshida qo'llaniladigan o'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasidir. Darsdagi insertning mohiyati nima ekanligini tushunish uchun uning nomi ingliz tilidan «samarali o'qish va fikrlash uchun interaktiv kognitiv tizim» deb tarjima qilingan qisqartma ekanligini bilish kifoya¹².

Usul beshta ketma-ket va majburiy bosqichda qo'llaniladi. O'qish jarayonida talabalar matnni piktogrammalar bilan belgilaydilar:

1. Tasdiq belgisi (√) – matndagi sizga tanish bo'lgan (allaqachon siz bilgan) ma'lumotlarni belgilang;

2. Minus belgisi (-) – sizdagi mavjud tasavvurlarga zid bo'lgan narsa, siz boshqacha fikrda bo'lgan (yangi yoki oldingi bilimlarga zid) bo'lgan narsa;

3. Plyus belgisi (+) – o'zi uchun yangi ma'lumotlarni belgilash (qiziqarli);

4. Undov belgisi (!) – qiziqish uyg'otgan narsa va u haqida ko'proq bilish istagi (men ko'proq bilishni istayman) qayd etiladi;

5. So'roq belgisi (?) - tushunarsiz bo'lib qolgan va qo'shimcha o'rganish va tushunishni talab qiladigan narsa, ya'ni nimani batafsilroq bilishni xohlash (aniq emas, savollar mavjud) belgilanadi.

«INSERT» texnologiyasi asosiy narsani tushuntirib qolmasdan balki, har bir yozilgan so'zga e'tibor bergan holda o'qilgan narsani ongli darajada idrok etish imkonini beradi. Natijada, bilimlarni o'zlashtirish darajasi ancha yuqori bo'ladi. Kognitiv, samarali o'qish va mulohaza yuritishga qaratilgan «INSERT» texnologiyasi koronavirusning Britaniya qirollik oilasiga ta'siri haqidagi Britaniya maqolasi misolida lingvistik oliy o'quv yurtlarining 3-kurs talabalari bilan sinovdan o'tkazildi. Ommaviy axborot vositalarining autentik materiali, shubhasiz, talabalarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiradi, chunki u ona tiliga imkon qadar yaqin va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda samaralidir.

O'qilgan ma'lumotlarning faol sintezi autentik matnning qiziqarli va kognitiv faktlarini oshkor qilishga imkon berdi. Nafaqat o'quv jarayonida, balki ona tilida so'zlashuvchilar bilan muloqot qilish jarayonida ham keyinchalik qiziqarli materiallarni o'rganish va ulardan foydalanish uchun talabalarga ularni tanlash imkoniyati beriladi. Autentik materialni kommunikativ farqlash ko'nikmalari 3-kurs talabalarining intellektual qobiliyatlarini shakllantiradi.

«PRES–formula» usuli. Ushbu usul Janubiy Afrikalik huquq professori Devid Makkoyd Meyson tomonidan yaratilgan. Ingliz tilidan qilingan tarjimada

¹² Щукин А.Н. Современные интенсивные методы и технологии обучения иностранным языкам. -М.: Филоматис, 2008. -С 63-67.

(«PRES-formula» - *Position – Reason - Explanation or Example - Summary*) u o‘z pozitsiyasini ifodalash, ma’lum bir nuqtai nazarni misol bilan asoslash va natijada muammoni hal qilishni anglatadi.

Ushbu usul tanqidiy fikrlashni shakllantirishga va talabalarning hayotiy idrokini kengaytirishga yordam beradi, undan insho yozishda, bahs va munozaralarni tashkil qilishda foydalanish mumkin. Bu usul talabalarni muammolarni yechish jarayonida, hatto muhokama qilish imkoni bo‘lmasa ham, ishtirok etishga undaydi. U talabalarda fikr, g‘oyalarni shakllantirishi va fikrlash jarayonining o‘zini-o‘zi boshqarishini modellashtirishi mumkin¹³.

3-jadval

«PRES-formula» usuli *Boris Jonson va boshqa davlat arboblarning COVID-19 ning ikkinchi to‘lqini haqida CNN kanalidagi video chiqishlari materiallarida*

P – Pozitsiya (nuqtai nazar)	Boris Johnson other European leaders announced the second lockdown in their countries. They told that a second wave pandemic constitutes an imminent threat to society, with a potentially immense toll in terms of human lives and a devastating economic impact. It is a difficult to predict the future evolution of a pandemic and to account for the diffusion across different regions of the World.
D – Dalil (nima bilan siz dalillaysiz)	We perform statistical analyses averaging on different levels of human interaction across Europe and with the rest of the world, finding that the second wave will occur between July 2020 and January 2021. We provide a statistical analysis of the temporal evolution of the second wave of infected cases, with the impact for various European countries.
M - Misol (faktlar)	France will enter a second nationwide lockdown starting on Friday to last until at least the end of November. In France, 706 per 100,000 people are thought to be infected with coronavirus, according to the European Centre for Disease Prevention and Control (ECDC). Blackburn has the highest infection rate in England at 740 cases per 100,000 people. The rate for the UK as a whole is currently 437.7 per 100,000people. Coronavirus infections in communities in England may be rising by as much as 96,000 new cases per day, according to the latest results. Using random swab testing of 85,000 people, researchers found that about one in 78 people in England had the virus between 16 and 25 October, up from one in 167 people between 18 September and 5 October. This is equivalent to 96,000 new infections each day.
N - Natija (xulosa)	The measures that were in place over the past two months across most of Europe were clearly insufficient to prevent the new large growth of infected cases and fast spread of the virus. It is particularly concerning that the fastest increase in the number of infections is being seen in the age groups of 55-64 years and 65 or more years of age. The severity of covid-19 and the risk of dying from the disease both rise with age. Spain again closed their borders. France will enter a second nationwide lockdown starting on Friday to last until at least the end of November, and Germany is imposing a one-month partial lockdown from 2 November but UK government does not want to impose a second national lockdown in England because it can destruct people’s lifestyle

¹³ Заир-Бек С.И., Муштавинская И.В. Развитие критического мышления на уроке. М: Просвещение, 2004. - С.47-50.

Ushbu usulning ahamiyati shundaki, u talabalarga o'rganilgan mavzu bo'yicha o'z pozitsiyalarini qisqacha ifodalash imkonini beradi. «PRES-formula» texnologiyasiga muvofiq qisqacha taqdimot dars mavzusini o'rganishga tanqidiy yondashish imkonini beruvchi to'rtta elementdan iborat. Ushbu texnologiya vositasida tadqiqotchi 3-kurs talabalariga Britaniya sobiq Bosh vaziri va boshqa hukumat a'zolarining CNN telekanalida COVID-19 ning ikkinchi to'liqini haqidagi video chiqishini tahlil qilishni taklif qiladi.

«PRES-formula» texnologiyasi muayyan hayotiy misollar va faktlar asosida o'z fikrini, takliflarini ifodalash, muammoli vaziyatlarga adekvat xulosalar va yechimlar keltirish orqali muloqot ko'nikmalarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini yaqqol ko'rsatib beradi. Ushbu texnologiya 3- kurs talabalarining tanqidiy fikrlash qobiliyatini maqsadli ravishda rivojlantiradi, chunki u olingan ma'lumotlarni analitik sintez qilish qobiliyatini faollashtiradi.

«**Baliq skeleti**» **usuli**. «Fishbone» ingliz tilidan tarjima qilinganda «baliq suyagi» yoki «baliq skeleti» degan ma'noni anglatadi. Ushbu usul qo'llanganda harakatlar quyidagi ketma-ketlikda bo'ladi:

1. Ma'lumki, har qanday muammo boshdan boshlanadi. Shuning uchun biz muammomizni baliqning boshiga joylashtiramiz;

2. Yuqori (yoki chap) «suyaklar»da muammo sabablarining aniq ta'riflari, pastki (yoki o'ngda) bu sabablarning mavjudligini tasdiqlovchi faktlar yoziladi;

3. Baliqning dumi xulosani ifodalaydi;

4. Matn bilan ishlash yoki tadqiqot yakka tartibda yoki guruhlarda o'tkazilishi mumkin;

5. Talabalarga muammoli mazmundagi ma'lumotlar (matn, video) va muammoning sabablarini tizimlashtirish va bu sabablarni tasdiqlovchi faktlar yoki dalillarni izohlash uchun «Baliq skeleti» sxemasi taklif etiladi.

«Baliq skeleti» diagrammasi asosiy sabablarni tez va samarali tushunishga imkon beruvchi, tuzatish harakatlarini ko'zlovchi oddiy vositadir.

Ushbu usul birlamchi sabablarni tahlil qilishning oddiy vositasi bo'lib, undan muayyan muammolarning savollari va sabablarini aqliy harakatlar bilan aniqlash uchun foydalanadi. Baliq skeleti diagrammasida turli sabablar toifalarga bo'linadi va sabablar oqibatga oqib tushgan holda, baliq suyagining tashqi ko'rinishiga o'xshash tasvirni hosil qiladi.

Ushbu texnologiyaning asosiy vazifasi muammoga olib kelishi mumkin bo'lgan barcha imkoniyatlarni aqlan o'ylab ko'rish, keyin bu muammoni keltirib chiqaradigan omillarga o'tish va ularni bartaraf etishdan iborat. Bu talabalarga nafaqat muammoning tarixi yoki alomatlarini yoki muammoning maqsadidan chetga chiqadigan boshqa mavzularga, balki nima uchun muammo yuzaga kelganiga e'tibor qaratish imkonini beradi¹⁴.

Ishlab chiqilgan «**Deduksiya**» **texnologiyasi** 3-kurs talabalarini darslarining mavzulari bo'yicha autentik materialning leksik terminlari bilan ishlashga qaratilgan. Ushbu innovatsion pedagogik texnologiyaning mohiyati ishlantirish

¹⁴ Эрганова Н.Е. Педагогические технологии в профессиональном обучении: Учебник / Н.Е. Эрганова. - М.: Академия, 2018. – С.54-59.

uchun ko'rsatma bo'lib xizmat qiladigan ratsional tahlil qilish, mulohaza yuritish, ma'lumotlarni sintez qilish orqali keyinchalik voqealarni prognoz qilish maqsadida dars mavzusidagi autentik maqolaning mohiyatini ochib beradigan asosiy fikrlarga tegishli so'z yoki so'z birikmalarni kontekstdan ajratib olishdan iborat.

3-kurs talabalari bir nechta kichik guruhlariga bo'linadi, chunki bu turdagi ishlar guruh bahslari va muhokamalari orqali samaraliroq amalga oshadi. O'qituvchi faqat talabalarning harakatlarini kuzatgan holda ularning faoliyatini dinamik oqimga yo'naltiradi va o'quv jarayonining yordamchisiga aylanadi. «Deduksiya» texnologiyasining sxemasi bir nechta bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- 1) dars mavzusi bo'yicha maqola yoki video taqdimotni tanlash;
- 2) materialning mohiyatini ochib beruvchi so'z, ibora yoki so'z birikmalar talabalar tomonidan aniqlanadi, ushbu holatda o'qituvchi fasilitator vazifasini bajaradi;

- 3) maqola sarlavhasini bashorat qilish maqsadida so'zlar to'plami solingan konvertlarni guruhlar bo'yicha taqsimlash. Bunda talabalarga tahlil va sintez uchun berilgan leksik birliklar asosida matnda taxmin qilinayotgan voqealar zanjiri mantiqiy ravishda quriladi, ya'ni deduksiya ko'nikmalari rivojlantiriladi;

- 4) muhokamada ishtirok etayotgan har bir guruh matnda taxmin qilinayotgan voqealar haqida tanqidiy fikr yuritadi va muammoni hal qilish uchun guruh a'zolari tomonidan voqealarning ilgari taqdim etilgan talqiniga qo'shilish yoki rad etish farazini ilgari suradi.

Ushbu texnologiya ilmiy bilim mantiqini modellashtiradi, bunda talabalar o'zlarida mavjud bo'lgan leksik birliklar asosida o'z gipotezalarini ilgari suradi, har bir so'zni tahlil qiladi, videoklip voqealarini bashorat qilish uchun taqdim etilgan so'zlarning butun majmuini hisobga oladilar. «Deduksiya» texnologiyasi 3-kurs talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning innovatsion usuli sifatida darsning turli bosqichlarida, ya'ni yangi materialni tushuntirish yoki dars mavzularini mustahkamlash sifatida qo'llanilishi mumkin. Ingliz tili darslarida BBC dasturlarining video taqdimotlaridan foydalanish, shubhasiz, til bilimlari darajasini oshiradi, chunki u talabalarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantiradi.

O'ylaymizki, autentik materiallar so'z boyligi ustida mukammal ishlash grammatik jihatdan to'g'ri gaplar tuzish malakalarini egallashni sezilarli darajada yaxshilaydi, talabalarining akademik lug'at boyligini oshiradi. «Deduksiya» texnologiyasi mantiqiy ketma-ketlikni tizish orqali talabalarining analitik fikrlash malakalarini shakllantirib, deduktiv qobiliyatlarini rivojlantiradi. Autentik materialdagi voqealarni bashorat qilish talabalarining kognitiv qobiliyatlarini shakllantirishga ta'sir qiluvchi faktlarning evristik kuzatuvini rivojlantiradi. Taxminlarni amalga oshirish yoki rad etish qobiliyati tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

«Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini joriy etish bo'yicha tajriba-sinov ishi» deb nomlangan uchinchi bobda lingvistik oliy o'quv yurtlari talabalari va o'qituvchilarini test sinovidan o'tkazish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalarini joriy etishning hozirgi holatiga doir tajriba sinovi taqdim etilgan.

Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish asosida tanqidiy fikrlashni o'qitishning bugungi holatini o'rganish maqsadida chet tili fanlari bo'yicha o'quv dasturlari, rejalari va o'quv-uslubiy majmualar tahlil qilindi. Filologiya fanlari bo'yicha dasturlarni amalga yaratishning hozirgi holati kommunikativ chet tili kompetensiyasini shakllantirishdan iborat bo'lib, ona tili sohiblari bilan chet tilida shaxslararo va madaniyatlararo muloqotni amalga oshirish qobiliyatida va tayyorgarligida namoyon bo'ladi. Chet tilini texnologiyalardan foydalanish orqali o'rgatish ijtimoiy bilim darajasini oshiradi, shaxsni shakllantirish va uning ko'p madaniyatli, ko'p tilli mamlakatlar vakillari bilan muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi. Chet tilini o'qitishning maqsadi texnologiya vositalaridan foydalanishga asoslangan holda talabalarning lingvistik dunyoqarashini kengaytiradi, muloqot madaniyatini shakllantirishga, umumiy nutqini rivojlantirishga yordam beradi.

Bu omillarning barchasi fanning mavqeini ko'taradi va muqarrar ravishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun hozirda yetarli darajada qo'llanilmayotgan innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish g'oyasini ilgari suradi. Yuqorida aytilganlarning barchasi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning samarali ishlashi va rivojlanishini ta'minlaydi.

Ushbu holatlar biz tomondan Samarqand davlat chet tillar instituti, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Buxoro davlat universiteti talabalari bilan olib borilgan tajriba-sinov ishlari davomida tekshirildi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini joriy etish bo'yicha tajriba-sinov ishlari oliy o'quv yurtlarining ish rejalari, dasturlari, o'quv-uslubiy majmualariga muvofiq pedagogik shart-sharoitlarni yaratish asosida shakllantirilgan. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda autentik materialni tanlash va ishlab chiqish ish dasturiga kiritilgan, ta'lim standartlariga mos keladigan mavzularga muvofiq amalga oshirilgan. Test sinovi metodidan o'quv jarayoniga texnologik yondashuvni joriy etish maqsadida foydalanildi.

Sinovda 300 nafar 3-kurs talabalari bir xil tarkibda 150 nafar talaba eksperimental guruhda va 150 nafar talaba nazorat guruhida ishtirok etgan. Sinovda har bir ko'rsatilgan oliy o'quv yurtidan 100 nafardan talaba ishtirok etdi.

Yakuniy test natijalari talabalarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda tanqidiy fikrlash usullaridan foydalanish samaradorligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Tajriba va nazorat guruhlari fikriga ko'ra, til malakalarini rivojlantirishga zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'sir koeffitsenti 86% ni tashkil etadi.

Test natijalariga ko'ra, Karl Pirson mezonlari asosida quyidagi statistik hisob-kitoblarni olish mumkin, bu natijalarning haqiqiy (tadqiqot natijasida aniqlangan) soni va o'rganilayotgan guruhlarda kutilayotgan nazariy miqdor o'rtasidagi farqlarning ahamiyatini baholashga yordam beradi. Ushbu usul ikki yoki undan ortiq nisbiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi farqlarning statistik ahamiyatini baholash imkonini beradi.

Sinov ma'lumotlariga asoslanib, biz eksperimental va nazorat guruhlaridagi noto'g'ri javoblarning o'rtacha foizini quyidagi o'lchovlardan foydalangan holda aniqladik:

$$A = \frac{\sum p}{N} 100\%$$

bu erda A- o'rtacha foiz, $\sum p$ - noto'g'ri javoblarning umumiy miqdori, N- ishtirokchilarning umumiy soni.

$$A = \frac{10\% + 4\% + 11\% + 5\% + 13\% + 17\% + 16\% + 15\% + 16\%}{100} = 14\%$$

Jami 14 foiz ishtirokchilar ikkala guruhda ham testda noto'g'ri javob berishgan, ayni paytda to'g'ri javoblarning o'rtacha foizi quyidagicha:

$$P = \frac{R \times 100\%}{N} \quad (R\text{-to'g'ri javoblar soni})$$

Eksperimental guruh:

$$P = \frac{85\% + 86\% + 87\% + 89\% + 86\% + 80\% + 85\% + 83\% + 81\% + 100\%}{100} = 85\%$$

va nazorat guruhida:

$$P = \frac{88\% + 87\% + 89\% + 88\% + 88\% + 82\% + 83\% + 87\% + 86\% + 100\%}{100} = 87\%$$

Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligini test natijalari ham yaqqol ko'rsatib turibdi. Tajriba guruhidagi talabalarning qariyb 85 foizi, nazorat guruhidagi ishtirokchilarning 87 foizi test sinoviga to'g'ri javob berdi. To'g'ri javoblarning umumiy koeffitsenti 86 foizni tashkil qiladi.


Olingan ma'lumotlarga asosanib, shu aniqlandiki, yakuniy test topshiriqlariga to'g'ri javoblarning umumiy hajmi 86 foizni tashkil etdi va testning aniqlash bosqichi bilan solishtirganda-66 foiz va shakllantiruvchi natijasi 74 foizni tashkil etdi, samaradorlikning o'rtacha ko'rsatkich 12 foizga oshgani aniq ko'rsatilgan.

Eksperimental ko'rsatkichlar ingliz tili darslarida autentik materiallardan foydalanish zarurligini isbotlaydi, bir vaqtning o'zida til ko'nikmalarini, xususan, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etishdir. 3 bosqichda eksperimental sinovdan o'tgan tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali ingliz tilini o'qitish sifatining o'sish ko'rsatkichi asosida 8 foizdan -12 foizga samaradorlik oshishi aniq kuzatilmoqda (2-rasm).

Ushbu ko'rsatkichlar og'zaki va yozma nutq ko'nikmalari tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida turli xil ma'lumot manbalari orqali har kuni takomillashib borishini isbotlaydi, bu esa o'z navbatida oqilona fikrlay oladigan, fikrlarni mantiqiy qura oladigan jamiyatning to'laqonli a'zosini tarbiyalash va rivojlantirishga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz tomondan olib borilgan ingliz tili darslarida foydalaniladigan pedagogik texnologiyalarni aniqlash maqsadida 30 nafar ingliz tili o'qituvchilari o'rtasida so'rov o'tkazildi. Shunigdek, SamDCHTI, JizDPU, BuxDU o'qituvchilaridan darsda qanday texnologiyalardan foydalanishni hohlashlari so'ralgan.

Ushbu texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish haqida so'ralganda (3-savol) quyidagi natijaga erishildi:



2-rasm. Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligining test natijalariga asoslangan ko'rsatkichi

$$\frac{\pi}{x^2} \sum (a) = \frac{84\% + 86\% + 70\% + 81\% + 95\% + 88\% + 90\%}{7} = 84\%$$

7

O'qituvchilarning 84 foizga yaqini yuqoridagi pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ularni o'quv rejasi va o'quv-uslubiy majmualariga kiritish maqsadida o'rganish va ulardan foydalanishga roziligini bildirishgan.

Shunday qilib, anketa ma'lumotlarini tahlil qilib, biz quyidagi xulosaga keldik. Zamonaviy til ta'limi sohasini rivojlantirish va uning faoliyatiga xos murakkabligi va dinamikligi uning barcha sub'ektlariga va avvalambor, o'qituvchilar oldiga yangi talablar qo'yadi. O'qituvchi nafaqat o'z fanini o'qitishning ayrim innovatsion texnologiyalarini mukammal egallashi, balki ular asosidagi qonuniyatlarning mohiyatini tushunishi, ularning kelib chiqish va rivojlanish istiqbollari ham to'laqonli aniqlashi lozim.

XULOSA

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish orqali tanqidiy fikrlashga o'rgatish bo'yicha olib borilgan ilmiy-uslubiy tadqiqotlar quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Texnik taraqqiyotning kuchayishi tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lgan bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy ehtiyojlari bilan uyg'unlashgan holda o'quv jarayonining didaktik sharoitini modernizatsiya qilish uchun yangi realiyalarni yaratishi munosabati bilan, ushbu tadqiqot jarayonida tanqidiy fikrlashni o'rgatishga xos pedagogik yondashuv va texnologiyalarning yangi usullari oydinlashtirildi hamda o'rganildi, shuningdek, ushbu yangiliklar lingvistik oliy o'quv yurtlarida chet tilini o'qitish amaliyotiga qanday ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

2. Og‘zaki va yozma nutq malakalarini tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali mukammallashtirishga qaratilgan «PRES-formula», «SWOT-tahlil», «Reyting», «INSERT», «IMEN», «Baliq skeleti», «Deduksiya» kabi pedagogik texnologiyalarning didaktik xususiyatlari va uslubiy vazifalari belgilandi.

3. Ommaviy axborot vositalari materiallari orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan «PRES usuli», «SWOT-tahlil», «Reyting», «INSERT», «IMEN-formula», «Baliq skeleti», «Deduksiya» kabi pedagogik texnologiyalar tahlil qilinib, o‘quv jarayoniga joriy etildi. Bu nafaqat talabalarning motivatsiyasini, balki darslarning samaradorligi va sifatini ham 86% gacha oshirdi.

4. Darsda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha ma‘lumot olish maqsadida ingliz tili o‘qituvchilari o‘rtasida qisqacha anonim so‘rov o‘tkazilishi natijasida o‘qituvchilarning 60% dan ortig‘i darsda ommaviy axborot vositalari asosidagi autentik materiallardan foydalanmautentikligini va klaster, aqliy hujum, bahs va munozara kabi an‘anaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishini ko‘rsatdi. O‘qituvchilarning qariyb 84% tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali og‘zaki va yozma nutq bilimlari darajasini oshirish maqsadida ularni keyinchalik mashg‘ulotlarda qo‘llash uchun innovatsion texnologiyalarga qiziqish bildirishdi.

5. «PRES-formula», «SWOT-tahlil», «Reyting», «INSERT», «IMEN», «Baliq skeleti», «Deduksiya» usullarini qo‘llash orqali 3-kursning turli aspektlari bo‘yicha darslarda tanqidiy fikrlashni o‘qitish va rivojlantirish metodikasi yaratilganligi tufayli oliy ma‘lumot olish jarayonida ijodiy potensialni rivojlantirish, o‘z-o‘zini takomillashtirish ustida ishlash, bilimlarni to‘plash, muhim shaxsiy fazilatlarini shakllantirish kabilar professional mutaxassis bo‘lishning asosiy mezonlaridan ekanligi aniqlandi.

6. Dars rejaları topshiriqlari bilan tasdiqlangan ish dasturiga muvofiq, tahlil qilingan pedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqildi va lingvistik oliy o‘quv yurtlari talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish maqsadida 3-kurs talabalarini uchun «Asosiy ingliz tili» fanini o‘qitish jarayonida qo‘llanildi.

7. 3-kurs uchun «Ingliz tilini o‘qitish metodikasi» fanidan ma‘ruza va seminar mashg‘ulotlarida foydalanish uchun va keyinchalik o‘quv-uslubiy majmuaga kiritish uchun nazariy va amaliy material ishlab chiqildi. Shunga ko‘ra, ta‘lim texnologiyalari o‘quv faoliyatini tabaqalashtirish va individuallashtirish uchun keng imkoniyatlar manbai ekanligi va o‘quv jarayonining yakuniy natijasi - yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashning muhim sharti ekanligi ma‘lum bo‘ldi.

8. Ushbu tadqiqot ishida qo‘llanilgan tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning tahlil qilingan samarali uslub va usullari talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishi va bilim olish malakalarini mukammallashtirishga olib kelishi orqali til bilish darajasi, talabalarning darsdagi faolligi, dars jarayonida o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar – bularning barchasi o‘qituvchini tilni o‘qitish jarayoniga xos u yoki bu usul, strategiya va texnikani tanlashga undashi mumkin bo‘lgan omillar sifatida olib qaraladi.

9. Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tanqidiy fikrlashga o‘rgatishdan faol foydalangan holda tizimli ish olib borish talabalarning fanga

bo'lgan qiziqishini, o'quv faolligni oshiradi, chet tilidagi autentik materiallarni chuqur o'zlashtirishni ta'minlaydi, talabalarning mantiqiy tafakkurini, xotirasini, nutqini rivojlantirib, autentik faktlarni tanqidiy anglash qobiliyati bo'lg'usi til mutaxassislarining kasbiy rivojlanishiga yordam beradi.

10. Oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'limni individuallashtirish va differensiallashtirishning didaktik tamoyillarini amalga oshirish uchun mutlaqo yangi imkoniyatlar yaratadi, talabalarning bilish va ijodiy faolligini, ularning ongini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, o'rganishdan mustaqil o'rganishga o'tish shartlarini amalga oshiradi va shu tarzda o'quv jaryoni faollashadi.

11. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalar talabalarning shaxsiy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, kasbiy va ijtimoiy jihatdan o'zini-o'zi belgilashga ongli ravishda yondashishga imkon beradi, shuningdek, tajriba ishlari asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalar orqali mutaxassislik tilini o'qitish sifat ko'rsatkichining o'sishi, ulardan foydalanish samaradorligining 8% dan -12% gacha farq qiladi. Bu haqiqat dunyoqarashni shakllantirishda, shuningdek har bir talabaning individual rivojlanish yo'lini aniqlashda muhim bo'lgan mantiqiy, assotsiativ, tizimli fikrlash orqali autentik materialni tanqidiy baholash ko'nikmalarini o'z-o'zini anglash zarurligini aniq namoyish etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019. FIL/Ped.83.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

ПЕТРОСЯН НЕЛЯ ВАЛЕРЬЕВНА

**РАЗВИТИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ
ЯЗЫКОВЫХ ВУЗОВ ПОСРЕДСТВОМ ИННОВАЦИОННЫХ
ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ**

13.00.02 - Теория и методика обучения и воспитания (английский язык)

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Самарканд - 2023

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В процессе глобализации и развития мирового сообщества резко увеличилась потребность в изучении иностранных языков. Современная педагогика нуждается в переосмыслении изменений в образовательном пространстве, произошедших в последние годы и продолжающихся на сегодняшний день. Общество нуждается в качественно новых характеристиках педагогической деятельности. В настоящее время в системе высшего образования наметилась тенденция к развитию критического мышления студентов, поскольку требуются специалисты с аналитическими навыками и умениями, которые могут распознавать и решать проблемы. Конструирование навыков критического мышления формирует аналитическое, ассоциативное, логическое, системное мышление учащихся языковых вузов, с последующим применением и развитием данных способностей в сфере профессиональной деятельности. Способность логически обосновывать предлагаемые решения конкретной проблемы, анализировать и синтезировать конкретные факты, следуя логическому порядку действий, является приоритетным в профессиональной подготовке будущих специалистов языковой направленности.

Наряду с проводимыми в мире исследованиями по использованию педагогических технологий при обучении английскому языку, ключевым пунктом является совершенствование уже существующих приёмов и методов обучения устной и письменной речи, в данном случае, использование современных педагогических технологий для развития критического мышления студентов языковых вузов на основе аутентичных материалов. В связи с этим, очевиден факт взаимосвязи развития коммуникативной компетенции и критического мышления студентов с использованием инновационных педагогических технологий, что в результате повышает качество профессионального образования.

Кардинальные изменения, произошедшие в обществе с первых дней независимости и вызванные развитием всех сфер в жизни государства, а также меры по реализации Национальной модели и программы по подготовке кадров, создали в республике уникальную ситуацию, не имеющую аналогов в истории Узбекистана. Целенаправленная позиция государства в сфере образования стала, по сути, ключевым моментом политических, социальных и экономических реформ в республике. Одним из главных приоритетов стратегии в ближайшей перспективе является образование молодого поколения республики, формирование «духовно богатой и нравственно цельной, гармонично развитой личности, обладающей независимым мировоззрением и самостоятельным мышлением, опирающейся на бесценное наследие наших предков и общечеловеческих ценностей».¹⁵ В связи с этим, определение ключевой цели обучения

¹⁵ Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на видеоселекторном совещании по вопросам кардинального совершенствования системы духовно-просветительской работы, усиления взаимодействия государственных и общественных организаций 21 января 2021 года.

иностранным языкам с целью формирования иноязычной компетенции может быть реализовано посредством внедрения современных педагогических технологий в учебный процесс, что способствует формированию и развитию навыков критического мышления.

Данное диссертационное исследование в определенной степени способствует реализации задач, поставленных в таких законодательных актах, как указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по развитию образования и воспитания, а также науки в новый период развития Узбекистана» за № УП-6108 от 6 ноября 2020 года, указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года» за № УП-5712 от 29 апреля 2019 года, указ Президента Республики Узбекистан «О дальнейшем совершенствовании системы послевузовского образования» за № УП-4958 от 16 февраля 2017 года, указ Президента Республики Узбекистан «Об организационных мерах по реализации Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан на 2017-2021 годы» за № 4849 от 14.февраля 2017 года, постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по содействию изучению иностранных языков в Республике Узбекистан» за № ПП-5117 от 19 мая 2021 года, постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в проводимых в стране масштабных реформах» за № ПП-3775 от 5 июня 2018 года, постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему повышению качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях» за № 610 от 11 августа 2017 года, закон Республики Узбекистан «Об образовании» за № ЗРУ-637 от 23 сентября 2020 года и других нормативных правовых актах в этой области.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан: I. «Формирование и пути реализации системы инновационных идей духовно-просветительского, культурного, экономического, правового, социального развития информатизированного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Развитие критического мышления и коммуникативной компетентности в образовательном процессе изучались такими зарубежными исследователями как Дж. К. Ричардс, Т.К. Роджерс, М.С.Ллойд, Т.Г. Бьюзан, Д.Ф. Халперн, С.Д. Крашен, Н.А. Жанссен и др.¹⁶

¹⁶ Richards J.C., Rodgers T.S. Different methods in language teaching. –Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 335 p.; Lloyd M., Bahr, N. Thinking critically about critical thinking in higher education. International Journal for the Scholarship of Teaching and Learning, 4(2), vol. 4, 2010.-P. 5-16.; Buzan T. Brain Training for Kids. New York, 2012. -86с.; Halpern D.F. Assessing the effectiveness of critical thinking instruction. - The USA: Penn State University Press, 2001.-P.270-286.; Krashen S.D. Second language acquisition and second language learning.

Компоненты педагогической технологии, критического мышления и речи, психологические исследования зарубежных ученых в этой области были выявлены такими российскими учеными как Г.С. Альтшуллер, О.И. Горбич, В.П. Беспалько, М.Н. Гуслова, Н.Д. Гальскова, Н.О. Яковлева, Е.И.Федотовская, А.П. Панфилова, Т.П.Сальникова, А.В.Коньшева и др.¹⁷

Методика преподавания иностранных языков освещена в научных трудах таких отечественных исследователей, как Ж.Ж. Жалолов, Г.Т. Махкамова, Ш.С. Ашуров, Л.Т. Ахмедова, У.Б. Азизов, Н.Х. Авлиякулов, Э.А. Сейтхалилов, М.М. Тожиев и др.¹⁸

